

THE TECHNOLOGY OF EXPRESSING THE NATIONAL IDEA IN PRIMARY EDUCATION THROUGH THE EPIC "ALPOMISH"

Khakkulova Shahnoza Olimovna

Samarkand State University Faculty of Pedagogy Masters

Annotation

This article describes the teaching of the epic "Alpomish" in primary education on the basis of new pedagogical technologies.

Keywords: heroism, patriotism, antiquity, education, technology, spiritual wealth, light of thought, tolerance, courage, honesty, globalization.

Mustaqil O'zbekistonning xalqaro miqyosda rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning bilimi, tarbiyasi va ma'naviy qiyofasining qay darajada shakllanishiga bog'liqdir. Shuning uchun ham mustaqil, ma'rifiy-madaniy, adolatli va insonparvar jamiyatda yosh avlodni har tomonlama yetuk, axloqli, odbli insonlar sifatida kamol toptirish dolzarb vazifadir(6). Bu borada boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyosdir. Boshlang'ich ta'limning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra, ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki, uning zamirida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari yotadi. Shu boisdan ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib tumanlidir. Zero, o'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti va Malaka talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa, olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchligi kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi.

Xalq dostonlari qadimiyatning buyuk bir ehsoni, o'zlari yaratilgan davrning umumiy dunyoqarashi, ayni paytda jonli an'anaviy ijod va ijro sharoitlarida xalq ruhining obyektiv holatini davrlararo ifodalab, mazmun va shakl jihatidan goh kengayib, goh torayib, ajdodlardan avlodlarga og'zaki ravishda yetib kelgan adabiy yodgorliklar hisoblanadi. Zero, ular xalq milliy tarixining afsonalar qobig'iga o'ralgan qahramonlik voqealarining o'ziga xos badiiy ifodasidir. Dostonlar gulto'ji "Alpomish" (Qarang: 1,2,3)xalqimiz yaratgan ana shunday milliy g'oyaning o'q tomirlaridan biri, balki birinchisidir. «Alpomish» dostonida bir oila taqdiri tasviri misolida, taqdir taqozosi bilan bo'linib ketgan qadimiy bir o'zbek urug'ining qayta birlashishini badiiy aks ettirish orqali millat birligi g'oyalari, uning qahramonona shon-shuhrati, el-yurt farovonligi va oila baxti, vatan ravnaqi uchun kurash baralla kuylangan. Shu ma'noda ushbu doston xalqimizning uyg'oq xotirasidir. Shuning uchun ham bugun biz uni mustaqil rivojlanish davrida millat birligi va ma'naviy uyg'onishi, milliy g'urur va o'z-o'zini anglash ramziga aylangan doston sifatida baholamoqdamiz. «Alpomish» dostonining ming yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda ta'kidlaganidek, «Alpomish» — o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan qon-qoniga, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahramonlik qomusidir. Dostondagi qaxramonlik, jasurlikni ulug'lash, mardlik tuyg'ulari vatanparvarlik g'oyasi bilan uzviy bog'langan holda tasvirlangan. Bu hissiyot qaxramonning tutqunlik davrida g'oz orqali vataniga salom yo'llashida, Barchin, Qaldirg'och, Yodgorlarning hijron alami tasvirida, qaxramonning yo'ldagi uchrashuvlari epizodlarida yanada yorqin aks etgan.Olijanob insoniy g'oyalar Alpomish, Barchin,

Qorajon, Qaldirg'och va boshqa ijobiy obrazlar orqali ochila boradi. Qabilaga, elga samimiy muhabbat, dushmanga g'azab, nafrat, mardlik va fidokorlik, oila baxti va samimiy sevgi, do'stlik va sadoqat, insof va adolat, osoyishtalik va farovonlik uchun kurash "Alpomish" dostonining etakchi g'oyaviy motivlaridir. Dostondagi bosh, ijobiy qaxramonlardan biri Alpomish haqida gapiradigan bo'lsak, uning baxodirligi Qalmoq eliga qilgan yurishlarida, yo'l qiyinchiliklarini engib Barchin turgan joyni topishida, to'rt shartni bajarishida, ayniqsa, sevgilisi Barchinni qalmoq pahlavonlarining qo'lidan qutqarish uchun olib borgan kurashida yaqqol ko'zga tashlanadi. Alpomish mehnatkash xalqning qahramonlik kuchlarini o'zida mujassamlashtirgan, yovuzlik va yomonlikning ashaddiy dushmani, el-yurt farovonligi yo'lida mardliklar ko'rsata olgan bahodirdir, xalq eposining quyma obrazidir. Dostonda Alpomishning kuch-qudrati, bahodirlik salohiyatini tasvirlashga alohida e'tibor berilgan. Alpomishning kuch-qudrati Barchin shartlarini g'olibona bajarishda, unga talabgor qalmoq alplari bilan olishuvlarida, ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. SHunday olijanob, sadoqatli, zukko, mard va bahodir yigit, o'ta zabardast to'qson alpning qarshiligini sindira olgan pahlavon kuch-qudratda o'zidan juda past, ma'naviy tuban Surxayil mastonning nayrangi bilan etti yillik tutqunlikda qolib ketadi. Bunda Alpomish xarakterining yana bir qirrasini namoyon bo'ladi. U – g'ururli, boladek sodda, o'ta ishonuvchan va sofko'ngil yigitdir. Dostonning ikkinchi qismi maishiy hayot sinovlariga boyligi, ochiq epizodlarni keng qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Dostonchi etti yillik tutqunlikdan keyin Alpomishning o'z yurtiga qaytishida uni qarindoshlari, cho'ponlar, yilqichilar, karvonlar, turli toifadagi kishilar bilan uchrashtirish orqali yurtidagi ahvol bilan tanishtiradi, odamlarning qaxramonga va uning raqibi Ultontozga munosabati yaqqol gavdalantiradi. Bu epizodlar Alpomishni alp qahramon va mardu maydon sifatida har jihatdan xarakterlab beradi. Yo'ldagi uchrashuvlarda Ultontozning zo'rlik bilan Barchinni olish uchun to'y qilayotganligini bilgan Alpomish tarbiyachisi Qultoy qiyofasida to'yxonaga boradi. Zolim raqib tomonidan kamsitilgan va o'g'li hajrida alam tortayotgan ota-onasiga hamdardlik qiladi, xo'rlangan, o'lim bilan qo'rqitilgan o'g'li Yodgorning boshini silaydi. Ultontozga xushomadgo'y bakovul va oshpazlarning ta'zirini beradi, o'lan aytishadi va o'zining kuch-qudratini, Barchinga hamda oilasiga sodiqligini yana bir bor namoyish qiladi. Dostonning etakchi obrazlaridan yana biri Barchindir. Bu alp qiz faqat jasur va dov yurak bo'lib qolmay, qo'lini so'ragan bo'lgan yigitdan ham salohiyat va bahodirlikni talab qiladi. Bu jihatdan uning Alpomish va to'qson alp oldida to'rt shart qo'yishi xarakterlidir. Qahramonlik va mardlikni tarannum etuvchi Barchin shartlari dostonida nihoyatda badiiy go'zal tasvirlangan. Fozil shoir xalqning boy badiiy tajribasini, turmushdagi eng mayda iker-chikirlarini ham juda yaxshi biladi, har bir detalni chuqur mushohada qiladi hamda o'z o'rnida qo'llaydi. SHuning uchun ham Barchin shartlari shunchaki tavsiflab qo'yilmaydi, balki u poetik obrazlarda ko'rsatiladi. Bu shartlarning bajarilishida Barchin bevosita bo'lmasa-da, bilvosita ishtirok etadi. U kurashda Ko'kaldoshni yiqitishga qaynalgan Alpomishni mardliklarga undaydi. Uning qur, hayt deb qichqirishlarini eshitgan Alpomishning oti Boychibor poygada o'zib, birinchi bo'lib marraga etib keladi. SHunday qilib, Barchin jangovar, bahodir, alp qiz, nomusi uchun faol kurashuvchi ona obrazidir. Bu obrazda mehnatkash xalqning xotin-qizlarga nisbatan samimiy munosabati, juda katta e'zoz va hurmati mujassamlashtirgan, ayollar yuksak insoniy qudrat va shon-sharafga ega ekanligi baralla kuylangan. "Alpomish" dostonida Alpomish, Barchin, Qaldirg'och, Qorajon, Qultoy, Boybo'ri, Boysarilar birgalikda Surxayil, Toychaxon, Ultontoz va Ko'kaldosh kabi yomonlik olamini o'zida mujassamlashtirgan salbiy kuchlarga qarshi kurash olib boradilar. Ana shunday qahramonlardan biri Ko'kaldosh esa qalmoq elidagi etti pahlavonning eng kattasi, eng kuchlisi, biroq uning kuch-quvvatidan hech kim foyda ko'rmaydi, aksincha undan faqat jabr-zulm ko'radilar. Zolimlik, zo'ravonlik, shafqatsizlik va insofsizlik Ko'kaldoshning xususiyatlaridir. U kishilarga azob berishdan zavqlanadi, o'z maqsadiga erishish yo'lida hech qanday



yaramas ishdan, hiyla-nayrangdan, qalloblikdan qaytmaydi. Toychaxon qalmoq shoxi, o'taketgan zolim va zo'ravon, shu bilan birga Surxayil va to'qson alpning qo'lida qo'g'irchoqdir. U to'qson alpga Barchinni tortib olish uchun izn beradi, ochiq maydondagi teng kurashda engilgach, tinchlik bilan o'z yurtlariga qaytab ketayotgan qo'ng'iroqliklar ustiga lashkar tortadi. Uning aybi bilan ikki marta urush bo'ladi. Har gal Alpomishdan engiladi. Toychixonning mahv etilishi yomonlik olamining mahv etilishidir. SHuning uchun ham dostonida uning xatti-harakatlari keskin qoralanadi. Dostonidagi salbiy tiplardan yana biri Surxayildir. U tinchlik va osoyishtalikni buzuvchi va kishilarga doim yomonlik istovchi shaxsdir. Qalmoqlar va qo'ng'iroqliklar o'rtasidagi janglarga shu shum kampir sababchidir. Uning hiylasi bilan asir tushgan Alpomishning qirq bir yigiti o'lib ketadi, Alpomish esa etti yillik tutqunlik azobini tortadi. Surxayil obrazida hukmron tabaqaning manfaati uchun xizmat qiluvchi ayyor, hiylakor, yaramas xulqli kishilar fosh etiladi. Alpomish dostonida muhim o'rinni zolim Ultontoz va unga qahramonning munosabati egallaydi. Ultontoz Alpomishning o'gay ukasi, Boybo'ring Bodom cho'ridan bo'lgan o'g'lidir. Uning pastkashliklari orqali tuban kishilarning basharasi mazmunan ochib berilgan.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, "Alpomish" xalq og'zaki ijodining o'lmas yodgorliklaridan durdonasidir. U boshlang'ich ta'limda ertak tarzida berilgan bo'lsa-da, uni kengroq, mazmunan, teran texnologik o'yinlar qobig'ida bolalarga etkazib berish o'qituvchilarning burchidir. Ushbu dostonning tili boy, sodda, jozibali va ravonligi, xalq donishmandligining ifodasi bo'lgan maqollar bilan bezatilganligi ham katta ahamiyatga egadir. "Alpomish" ozod, erkin, mag'rur va go'zal odamlar xaqida to'qilgan, shularni maqtab ko'klarga ko'targan, shu bilan odamlarning yuragiga yaqinlashgan asardir. U o'zbek xalqining ko'p asrlik badiiy yodgorligi sifatida jahon madaniyati tarixida, tarbiya tutumida muhim tamal toshidir. Zero, xalqimiz azaldan farzand tarbiyasi, uning kamoliga alohida e'tibor va mas'uliyat bilan yondoshib keladi. Barkamol avlodni "Alpomish" qahramonlaridek voyaga etkazish, ularga tarbiya berish, ilmi, bilimli va barkamol inson kilib tarbiyalash xar bir odamning, ayniqsa, o'qituvchi-murabbiylarning asosiy vazifasidir. Demak, tarbiya inson hayotida juda muhim sanaladi, shu sababli ta'lim jarayonida bunga alohida e'tibor qaratish pedagoglarning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Buni bevosita badiiy adabiyot orqali, milliy alplarning obrazlari vositasida amalga oshirish mumkin. Chunki badiiy asarlar o'quvchi ongiga yetarli darajada o'z ta'sirini ko'rsata oladi. Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalar kabi milliy adabayotimiz rivojini yangi bosqichga ko'tarish, jumladan, badiiy adabiyot bo'yicha ham keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki, ulg'ayib kelayotgan yoshlarimiz nafaqat milliy tilimiz va adabayotimiz, balki ma'naviyatimizning o'q ildizlaridan ham xabardor va bahramand bo'lishlari shart. Buning uchun yoshlarimizni boy qadimiy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash yo'lchi-yulduzdir. Bu borada "Alpomish" dostoni milliy g'oyaning yuragidir. Unda umumbashariy fazilatlar, nurafshon ezguliklar, oftob mehridek do'stlik hamda sadoqat, mardlik va vatanparvarlik dunyo ahlini nurga, ziyoga, bunyodkorlikka, yaxshilikka mangu chorlab turadi.

Adabiyotlar:

1. Alpomish. Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li. -T.: SHarq, 2010, 400-b. Alpomish. -T.: Fan, 1999, 404-b.
2. Alpomish. Aytuvchilar: Po'lkan va E. Jumanbulbul o'g'li. -T.: Yozuvchi, 1999, 380-b.
3. Mirzaev To'ra., Jabbor Eshonqul, Selami Fidokor. "Alpomish" dostonining izohli lug'ati. -T.: "Elmis-Prees-media", 2007, 157-b.
4. Umarova M., Hamroqulova X., Tojiboeva R. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. -T.: 2019-y. 224-b.
5. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Prezidentining qarori. 23 sentyabr 2020 yil, Toshkent.// www.O'zA.uz